

SAMARQAD – ME’MORIY BUNYODKORLIK BESHIGI

Sirocheva Gulshoda

Registon ansambli gid-ekskursovodi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlari me‘morchiligi yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, “Samarqand — madaniyatlar chorrahasi”, Ingliz olimi D.S.Trimingem.*

Bugungi kunda yurtimizda moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma‘lumki, madaniy meros jamiyat asosini, xalqlarning avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan ma‘naviy qadriyatlari va an‘analarini mustahkamlovchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois bosh qomusimizda belgilab qo‘yilganidek, ushbu bebaho boylikni ko‘z qorachig‘idek avaylab asrash va keng targ‘ib qilish har bir insonning muqaddas burchidir. Bugun mamlakatimizdagi 4 me‘moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekiston 1993-yilda YUNESKOga a‘zo bo‘lgan va mustaqillikning dastlabki yillaridayoq “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”, “Muzeylar to‘g‘risida”, “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlar asosida insoniyat tamadduni rivojida muhim o‘rin egallagan qadimgi va o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan shaharlar xarobalari, monumental san‘at yodgorliklari, alohida aholi ziyoratgohlari, me‘morchilik merosi yodgorliklarini saqlab qolish, ta‘mirlash va o‘rganishda davlatimiz tomonidan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etishim joizki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir xalqaro anjumanlar uyushtirilmoqda. Hozirgi kunda davlat muhofazasiga olingan 8 mingdan ortiq madaniy meros obyekt bo‘lib, shundan 2330 tasi me‘morchilik, 3945 tasi arxeologik, 1138 tasi monumental yodgorliklar va 157 tasi diqqatga sazovor maskanlardir. Muqaddas qadamjolar hamda ziyoratgohlar, e‘tiborga tushgan joylarni tiklash va ta‘mirlash ishlari bugun butun mamlakat bo‘ylab amalga oshirilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Samarqanddagi Shohi Zinda, Registon, Bibixonim, Ruhobod, Amir Temur maqbarasi, Buxorodagi Kalon masjidi va minorasi, Mir Arab madrasasi, Labi Hovuz va Bolo Hovuz majmualari hamda boshqa ko‘plab qadimgi, o‘rta asrlardagi me‘morchilik durdonalari o‘zbek xalqining yuksak ijodkorlik mahorati namunasidir.

Jahonning bir qator mamlakatlarida shunday shaharlar mavjudki, ular insoniyat tarixiy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutishi va mashhurligi bilan nom qozonib kelmoqda. G‘arb va Sharqning Afina, Rim, Parij, Bag‘dod, Damashq kabi shaharlari bilan bir qatorda Samarqand nomi e‘zozlanadi va manbalarda turli nomlar bilan tilga olinadi. Samarqandning umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, 2001-yilda YUNESKO tashkiloti tomonidan “Samarqand — madaniyatlar chorrahasi” sifatida jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 2019-yilda Samarqandning Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga (WTCF) a‘zo bo‘lishi, uning kelajakda jahon turizm markaziga aylanishiga asos bo‘ldi. Samarqand dunyoning borib ko‘rishi mumkin bo‘lgan 50 ta shaxardan biri hisoblanib, bu ro‘yxatga MDH davlatlari shaharlaridan faqat Samarqand munosib ko‘rilgan.

Samarqand va Movarounnahrning mahobatli obidalari, bir-biridan ko‘rkam bog‘ va saroylari Husayn Boyqaro saltanatida vazirlik vazifasida ishlayotgan shoirni bunyodkorlikka ilhomlantirgan bo‘lsa ajab emas. So‘nggi Temuriylardan biri bo‘lgan Husayn Boyqaro ham ulkan binolar qurilishiga jazm etgan. Uning bunday ishlarga qo‘l urishida, asosan, bosh vazir Alisher Navoiyning xizmati katta edi. Navoiy butun kuch-g‘ayratini xalqqa, el-yurtga xizmat qiladigan inshootlar bunyod etishga qaratgan. Navoiyning me‘morchilikka doir faoliyati ko‘p qirralidir. Avval qurilgan muhtasham binolarni zamona talablariga moslab ta‘mirlash, masjid-u xonaqolar qurish, saltanatning turli hududlaridan kelgan savdogarlar, sayyohlar, darveshlar qo‘nim topadigan rabotlarni, ko‘prik va sug‘orish inshootlari, xalq salomatligi yo‘lida shifoxonalar, hammomlar qurish, bog‘ va ko‘shklar barpo etish shular jumlasidandir. Ulug‘ shoir va davlat arbobining me‘moriy obidalar ta‘miriga boshchilik qilgan.

Ingliz olimi D.S.Trimingem “Sufiyskie ordena v islame” (M.1989) asarida Navoiy 90 ta rabot qurdirgan deb ko‘rsatib o‘tadi. Navoiy qurdirgan xonaqohlarda o‘tkazilgan tadbirlar haqidagi ma‘lumotlar ham qiziqish uyg‘otadi. Xondamirning yozishicha, “Xalosiya” xonaqosida, “Ixlosiya” madrasasida har kuni mingdan ortiq zaif va miskinlarga dasturxon yozilib, ular laziz taomlar bilan to‘ydirilgan. Har yili muhtojlarga kiyim-bosh ulashilgan. Navoiy Samarqand va Hirotda bir qancha buloqlar ochtirib, kanallar qazdiradi, ariq oldirib suv chiqaradi. Ulug‘ shoir bog‘ tuzish san‘atidan, bog‘ me‘morchiligi uslublaridan yaxshi xabardor bo‘lib, ko‘p yerlarda bog‘ tashkil etgan, bog‘ ko‘shklari qurdirgan. Bu davr me‘morchiligi haqida tarixchilar keltirgan ayrim ma‘lumotlarning o‘ziyoq bunyodkorlik sohasida olib borilgan ishlari ko‘lami keng va turli-tumanligini yaqqol ko‘rsatadi. Yuqorida aytilganlar temuriylar davri inshootlarining faqat bir qismi xolos. Bugungi kunda Temuriylar davriga oid Xuroson — hozirgi Afg‘oniston, Janubiy Turkmaniston, Sharqiy-shimoliy Eron hududlarida hozircha aniqlanmagan ko‘plab obidalari mavjudligiga shubhamiz yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov B. “Sohibqiron Temur. Toshkent. 1996;
2. Bahodir Eshov. “O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi”- T.: “Ma’rifat”, 2009.